



**O'ZBEKISTONNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARIDA
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH YO'LLARI**

Tursunova Farangiz

TDIU talabasi

Jahon miqyosida globallashuv jarayoni kuchayib borayotgan bir sharoitda, O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish, milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan. Bugungi kunda O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida o'zining iqtisodiy salohiyati va raqobat afzalliklariga ega bo'lgan davlat sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekiston 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni belgilab oldi. Unda quyidagi strategiyalar mavjud :

- Erkin va adolatli savdo: Barcha davlatlar uchun erkin va adolatli savdo sharoitlarni yaratish, proteksionizm va savdo to'siqlarini kamaytirish.
- Eksportni diversifikatsiya qilish: Kam rivojlangan mamlakatlar eksportini diversifikatsiya qilishga ko'maklashish, ularning raqobatbardoshligini oshirish va jahon bozoriga integratsiyalashuvini kuchaytirish.
- Investitsiyalarni jalb qilish: Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratish, investitsiya muhitini yaxshilash va investorlar huquqlarini himoya qilish.
- Marketing va reklama: Mahsulotlarni xalqaro bozorda targ'ib qilish, marketing va reklama faoliyatini kuchaytirishga e'tibor qaratish⁸⁶.

Tashqi iqtisodiy aloqalarda raqobatni yaxshilash mamlakat uchun iqtisodiy o'sish va rivojlanishga ko'mak beradi, aholi turmush darajasini oshiradi, ushbu mamlakatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi, importga bo'lgan qaramlikni, ishsizlikni kamaytiradi.

Bilamizki har bir sohaning tubida bilim yotadi, shu sababdan ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish orqali bilimdon, yetuk mutaxassislariga ega bo'lishimiz mumkin. O'zbekistonda mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan, zamonaviy texnikalarni yaxshi biladigan va xalqaro miqyosda raqobatlasha oladigan kadrlar yetishmaydi. Shu bois, ta'lim tizimini isloh qilish, o'quv dasturlarini zamonaviy talablarga moslashtirish va talabalarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish zarur. Mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot ishlariga yetarli e'tibor berilmaydi. Bu borada ilmiy-tadqiqot institutlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ularning xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorligini rivojlantirish va olimlarning xalqaro konferensiyalarda ishtirok etishini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

⁸⁶ <https://uzresearchers.com>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR




Bugungi kunda jahon savdosiga faqatgina yuqori o'sish sur'atlarigina emas, balki tarmoq va hududiy tuzilishidagi o'zgarishlar ham xosdir. Bu o'zgarishlarni ikki holat bilan izohlash mumkin:

Birinchidan, xalqaro savdo tarkibida xomashyo, yonilg'i, oziq-ovqat mahsulotlarining hisyasi kamaymoqda. Ilm talab sohalarning mahsulotlari va xizmatlarining hisyasi esa ortib bormoqda.

Ikkinchidan, tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoridagi o'rinlar nisbati o'zgarmoqda. Jahon yalpi eksportida AQSH hissasining pasayishi va aksincha, Yaponiya, Germaniya, yangi industrial davlatlar hamda ayrim rivojlanayotgan mamlakatlar hissalarining ortib borishida namoyon bo'lmoqda.

Quyida biz O'zbekiston respublikasining tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'atlarini 2022 hamda 2023-yillar kesimida ko'rishimiz mumkin.

Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati (yillik)






TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati (yillik)



O'zbekistonning tashqi iqtisodiyotida raqobatbardoshlikni kuchaytirish – mamlakatning barqaror rivojlanishini va jahon iqtisodiy maydonida munosib o'rin egallashining muhim shartidir.